



Hafiza Salyahova,

jurnalist, Farg'on'a viloyati

Oromgohlar bolajonlar xizmatida

Yoz bolajonlarimiz uchun yorqin vogeliklarga boy va alohi-da quvonch baxsh etuvchi fasldir. Xalqimiz bolajon xalq. Yoz faslda mактабдан ta'tilga chиqqan bolajonlarga ularning dam olishlari uchun alohida g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Mam-lakatimizning barcha shahar va viloyatlarda bo'lgani kabi Farg'on'a viloyatida ham barcha oromgohlar bolajonlar uchun o'z quchog'ini ochadi. Viloyatda ulg'ayayotgan bolajonlarning jami 32 mingdan ziyod nafari ko'ngildagidek dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratib qo'yilgan. Farg'onalik bolalarning 20 ming nafari uchun viloyatdagi 118 ta umumiy ta'lif maktablari qoshida sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etilgan. «O'zbektelekom» AK Farg'on'a filialida xizmat qilayotgan mutaxassis-xodimlarining farzandlari har yildagidek bu yil ham maroqli hordiq chiqarishlari uchun turli oromgohlarda qulay imkoniyatlar taqdim etildi. Avvaldan hozirlik ko'rigan oromgohlar bolajonlarning yozgi ta'til davriga shay qilib qo'yildi.

Joriy yildagi yozgi ta'til mavsumida «O'zbektelekom» AK Farg'on'a filiali ishchi-xodimlarining farzandlari sog'lomlashtirishi uchun qanday oromgohlar taqdim etildi? Savolimga filial sex kasaba qo'mitasining raisi Husanboy Abdurahimov quyidagicha javob berdi: «Bolalarimizga Qo'qondagi «Koinot» va Quvasoydagisi «Nihol» oromgohlari miriqib dam olish taqdim etilgan. Bugungi kunda bolajonlarning dastlabki jamoasi dam olmoqda. Bu yil filialimizga 140ta yo'llanma ajratilgan edi, biroq uyushmamiz mablag'lari bisobidan yana 20ta yo'llanmani sotib olishga qaror qilganmiz. Bolalar sog'lig'i uchun bar qancha mablag' sarflasak arziydi, albatta».

Ha, Husanboyda bolalar taqdidi, iqibili uchun mas'ullik hissi niyoyatda kuchli, qani endi, hamma ham shunday bolajon bo'lsa,

farzandlarimiz sog'-salomat, aqli, sog'lom tafakkurli bo'lib kamolga yetardi, albatta. Buni yaxshi bilgan rahbariyat ham ushbu mas'uliyatlari vazifani unga ishonib topshirgan. Ota-onalarning ham jondan aziz farzandlari oromgohlarga dam olishlari hamda esomon qaytishlari uchun mas'ul bo'lgan bunday fidoyi kasaba qo'mitasiga ehtiromlari beqiyos.

Ayni kunlarda bolajonlar qanday dam olmoqdalar? Ularning kundalik hayotlari qanday kechmoqda? Maktabdag'i darslar, soatlab partada o'tirishdan uzoqlashib, uy vazifalaridan «qutilib», qanday dam olmoqdalar? To'garaklar faoliyati qanday yo'lga qo'yilgan? Yotoq joylari, suv havzalari pokizami? Bolalarning quvnabayrashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganmi? Shu va shu kabi savollarga javob olish uchun Quvasoydagisi «Nihol» oromgohida bo'ldik. Yuqoridagi savollarga filial sex kasaba qo'mitasiga raisining o'zi qisqacha javob berdi:

— Men kunda-kunora kelib, bolalardan xabar olib turibman. Hammasi joyida: taomlar ratsioni ham, pokizalik ham, to'garaklar isbidan ham ko'ngil to'ladi. Faqat, rosti, ba'zi ma'ruzali tadbirlar, mening nazarimda, cho'zib yuborilyapti. 45 daqiqали darslardan charchagan bolalarga tadbirvozlikning keragi bormikin? Zukkolik, topqirlik musobaqalari, tanlovlari, sport o'yinlari, suv havzasida mazza qilib suzish butunlay bosbqa gap. Niboyatda foydali. Bola o'ynab-kuladi, chiniqadi. Kuzatishimcha, bolalar smena ochilishi tadbirini juda yaxshi ko'radilar. Barcha tadbirlar shunaqa — ko'tarinki rubda bo'lishi maqsadga muvojidir.

Buni atrofimizni o'rab olgan bolalar ham jo'r ovozda tasdiqlashdi: Xuddi shunday! Zo'r!



— Bo'lmasamchi, «Gulxan» tantanasi hammamizga juda yoqadi. Biz boslang'ichda o'qigan yillarimizdan buyon shu oromgobda dam olamiz, — deyishdi Islombok Rafiqjonov bilan Shohjahon Shoirjonovlar.

— «Gulxan» atrofida hamma o'zining san'ati, maboratini namoyish qiladi. Kimdir qo'shiq kuylaydi, kimdir raqsga tushadi. Qanday qilib, ashula aytib, raqsga tushib ketganining bilmay ham qolasan!

— Yana-chi, oromgohning yana nimasi yoqadi? — so'rayman. Javob aniq.

— «So'lim tabiat, ingliz tili to'garagi mashq'ulotlari, tarbiyachi aka va opalarning bilimdonligi, suzish, sport musobaqalari...».

Yana shunisi quvondchliki, ahil jamoadagi bolajonlar ko'ngliga yaqin bo'lgan: «Kim bo'lsam ekan?» kabi mavzulardagi suhbatlar ham o'tkazilarkan. Bunday dili orzular bilan jo'shgan bolajonlar, bo'lajak olim, shifokorlar, tadbirkor va iqtisodchilarning suhbatini tinglash g'oyat huzurbaxsh bo'larkan!

Oromgohda kechgan unutilmas kunlarning afzallik jihatlari juda ko'p. Bu haqda nabiralarini ko'rgani qizi — 226-ATS muhandisi Mu-navarxon Hakimova bilan kelgan Munojatxon Alimova (Munojatxon uzoq yillarda filialda muhandislik lavozimida ishlab hurmat qozongan, hozirda keksalik gashtini surayotgan baxti bekam buvajonlardan biri)ning fikri bilan qiziqdik. Uning javobi ham yoqimli bo'ldi:

— Oromgoh ham o'ziga xos tarbiya maskani. Nabiralarimning «Musavvir» to'garagida erishgan ilk yutuqlari taqdirlanganidan boshim osmonga yetdi. Bu yil ham shu to'garakda qalamlari charxlanyapti. Oromgoh bayotida katta bikmat yashirin. Bolalarimiz bunda otanonasi, bobo-buvusi haqida o'ylaydi. O'z imkoniyatlari, iqtidorini

rivojlanadiradi, fikrlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, o'zini boshqalarga solishtiradi, kamchiliklari, zaif tomonlarini sezib, yo'qotishga barakat qiladi. Murosai madora, mulogot madaniyati paydo bo'lishini, kun tartibi qat'yligini ayting. Tan olaylik. Yotgan joylarini tartibga keltirib, kiyim-boshlarini joy-joyiga qo'yish, o'ziga qarab, ozoda yurish ko'nikmasini shakllantirishda oromgohning mubim ahamiyatibor. Xullas, biz uyda o'rnatda olmagan ba'zi tartiblarni oromgob o'rgatadi, ko'niktiradi. Bu tartibda «pishgan» bola harbiy xizmat si-novlariga ham dosh beradi, esankirab qolmaydi. Qarang, nevaralarim ukalari Muhammaddiorni qanchalar sog'inishibdi, ukajonlari esa ularni. Ko'rib turbsizlarki, sog'inch tuyg'ularida ham xosiyat ko'...

Qizalog'i Husnidani ko'rgani kelgan 225-ATS muhandisi Umidaxon Umaraliyeva dil so'zlarini shunday bayon etdi: Qizim juda tortinchoq, kamgap edi. O'lgan yili «Nobil»da dam olib, uyga qayt-gach, uning o'zgargani darrov sezilgandi. Avvalo mebriron qizga, mebriron singilga aylandi. Fikr-mulobazalarini qo'rqlay dadil-dadil aytadigan bo'ldi. Fursati yetganda aytay, buning uchun biz kompaniyamiz rabbariyatiga, kasaba uyusmlari federatsiyasi-ga, filialimiz rabbariyatiga hamda kasaba uyusmlarimizga, oromgoh tarbiyachilariga ota-onalar nomidan cheksiz minnat-dorchiligidimizni izbor etamiz. Rabmat!

Suhbatimizga qo'shilgan oromgoh hamshirasi Nilufarxon Jo'rabyevaning fikri muloqotimizga o'zgacha yakun yasadi: Eng asosiysi, oromgobimizda bar yilgi mavsumda 800 nafardan ko'proq bolani sog'lomlashtiramiz. Ular tiniqib, bordiq chiqarib, yangi kuch bilan uylariga qaytadilar. Bu xayrli isbda jamaomizning ham munosib bissasi borligidan faxrlanamiz! ↗